TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbonov Xayrilla	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)

Kurbonov Xayrilla

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti I.f.n., dots.

Email: kh.kurbonov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faoliyatida portfel menejmentini samarali tashkil etish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyaviy aktivlarni tanlash va joylashtirish jarayoni Garri Markovis portfel nazariyasi asosida risk va kutilgan daromad o'rtasidagi muvozanat nuqtayi nazaridan o'rganilgan. O'zbekiston moliya bozorlarida mavjud bo'lgan bank depozitlari, davlat va korporativ obligatsiyalar, investitsiya fondlari, repo bitimlari hamda aksiyalar asosida qisqa muddatli investitsiya portfellarini shakllantirish imkoniyatlari tizimli baholangan. "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati misolida moliyaviy aktivlar bo'yicha kutilgan daromad va risk ko'rsatkichlari hisoblanib, optimal investitsion qaror qabul qilishning analitik asoslari ishlab chiqilgan. Olingan natijalar aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsion siyosat samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: portfel nazariyasi, risk, daromad, qisqa muddatli investitsiyalar, aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy aktivlar, diversifikatsiya.

Abstract. This article analyzes the issues of effective organization of portfolio management in the investment activities of joint-stock companies from both theoretical and practical perspectives. The study examines the process of selecting and allocating financial assets based on Harry Markowitz's portfolio theory, focusing on the balance between risk and expected return. The possibilities of forming short-term investment portfolios in Uzbekistan's financial markets—using bank deposits, government and corporate bonds, investment funds, repo transactions, and equities—are systematically evaluated. Using the case of JSC "Navoiyazot," expected returns and risk indicators of financial assets are calculated, and analytical foundations for making optimal investment decisions are developed. The results obtained have practical significance for ensuring financial stability and improving the effectiveness of investment policies in joint-stock companies.

Key words: portfolio theory, risk, return, short-term investments, joint-stock company, financial assets, diversification.

Аннотация. В статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы вопросы эффективной организации портфельного менеджмента в инвестиционной деятельности акционерных обществ. В исследовании процесс отбора и размещения финансовых активов рассматривается на основе портфельной теории Гарри Марковица с позиции баланса между риском и ожидаемой доходностью. Системно оценены возможности формирования краткосрочных инвестиционных портфелей на финансовых рынках Узбекистана на базе банковских депозитов, государственных и корпоративных облигаций, инвестиционных фондов, репо-сделок и акций. На примере акционерного общества «Navoiyazot» рассчитаны показатели ожидаемой доходности и риска по финансовым активам, а также разработаны аналитические основы принятия оптимальных инвестиционных решений. Полученные результаты имеют практическое значение для обеспечения финансовой устойчивости и повышения эффективности инвестиционной политики акционерных обществ.

Ключевые слова: портфельная теория, риск, доходность, краткосрочные инвестиции, акционерное общество, финансовые активы, диверсификация.

KIRISH

Zamonaviy sharoitlarda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va likvid resurslardan samarali foydalanish masalasi moliyaviy menejment tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, moliyaviy bozorlardagi o'zgaruvchan kon'yunktura va noaniqlik sharoitida moliyaviy investitsiyalar portfellarini shakllantirishda risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Moliyaviy investitsiyalar aksiyadorlik jamiyatlari uchun likvidlikni ta'minlash, pul oqimlarini optimal boshqarish hamda moliyaviy resurslarning vaqtincha bo'sh qolib ketishining oldini olishning zamonaviy instrumentlarini o'zida mujassamlashtiradi. Biroq ushbu investitsion qarorlar yuqori darajadagi risk va noaniqlik bilan bog'liq bo'lgani sababli, optimal qarorlar qabul qilishda zamonaviy portfel nazariyasiga asoslangan analitik yondashuvlarni qo'llash zarur. Shu bois, ushbu ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining qisqa muddatli investitsion faoliyati portfel nazariyasi asosida tahlil qilinib, moliyaviy aktivlarning kutilgan daromad va risk ko'rsatkichlari asosida optimal qaror qabul qilish mexanizmi tadqiq qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy aktivlar portfellarini shakllantirish va boshqarish masalalari zamonaviy neoklassik fanida keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, Harry Markowitz tomonidan ishlab chiqilgan [2] portfel nazariyasi moliyaviy aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali riskni minimallashtirish va kutilgan daromadni optimallashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslab bergan. Ushbu yondashuvda aktivlardan kutilgan daromad va dispersiya portfel samaradorligini baholashda asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Yu. Kasimov ilmiy tadqiqotlarida investitsiya jarayoni va uni baholash, ya'ni investitsiyalarni boshqarish, moliyaviy operatsiyalar, ularni baholash va vaqt dekompozitsiyasi, fond indeksleri, optimal qimmatli qog'ozlar portfellarining ehtimoliy va parametrik bozor modellari, Blek va Markovitz, Tobin–Sharpe–Litner modellarining xususiyatlari hamda moliyaviy bozor modellari, pul bozori instrumentlari, obligatsiyalar va qat'iy daromadli aktivlar, investitsiya portfellari va obligatsiyalar portfelini boshqarish strategiyalari [3] bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. James Tobin portfel nazariyasini [4] rivojlantirib, risksiz aktivlarni hisobga olgan holda investitsion qaror qabul qilishning kengaytirilgan modelini taklif qilgan. Shuningdek, korporativ moliya sohasida Franco Modigliani va Merton Miller ishlarida kapital tuzilmasi, risk va daromad o'rtasidagi bog'liqlik [5] chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy tadqiqotlarda (A. Damodaran [6], R. Brealey va S. Myers [7]) portfel menejmenti aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashda muhim instrument sifatida qaraladi.

Biroq O'zbekiston sharoitida qisqa muddatli investitsiya portfellarini mahalliy moliya bozorlari imkoniyatlari asosida risk–daromad dilemmasi nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, milliy moliya bozorlari sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining qisqa muddatli investitsiya portfellarini optimallashtirishga qaratilgan amaliy va nazariy yechimlarni taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqot neoklassik portfel nazariyasi asosida olib borilgan bo'lib, unda nazariy-analitik, ehtimoliy-statistik va amaliy hisob-kitob usullaridan foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotning metodologik asosi sifatida G. Markovitsning portfel nazariyasi va J. Tobinning risk–daromad muvozanatini kengaytiruvchi modellaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida moliyaviy aktivlar bo'yicha kutilayotgan daromad va risk (dispersiya hamda standart og'ish) ko'rsatkichlari ehtimollar nazariyasi asosida hisoblangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarning qisqa muddatli investitsion faoliyatini o'zida mujassamlashtiruvchi portfel menejmentini samarali tashkil qilishga imkoniyat yaratuvchi milliy moliyaviy bozorlarda bir qator moliyaviy instrumentlar mavjud. Shuningdek, ushbu moliyaviy instrumentlar asosida qisqa muddatli investitsiyalar bilan bog'liq portfellarni shakllantirishning bir qator institutsional asoslari yaratilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda qisqa muddatli investitsiya operatsiyalari uchun moliyaviy bozorlaridagi imkoniyatlar¹

№	Moliyaviy instrumentlar	Afzalliklar	Joriy imkoniyatlar	Institutsional asoslar
1.	Bank depozitlar	Yuqori likvidlilik va davlat kafolatlari	1 oydan 12 oyga qadar muddatlarda	Tijorat banklari
2.	Davlat qimmatli qog'ozlari	Kafolat, soliq imtiyozlari, yuqori likvidlilik	Muddatli (3 oydan 1 yilga qadar), me'yordagi daromad	Toshkent Fond birjasi
3.	Korporativ obligatsiyalar	Nisbata yuqori daromad, muddatli va fiksirlangan daromad	3 oydan 18 oyga qadar muddatli	Yirik banklar va aksiyadorlik jamiyatlari

1 Muallif tomonidan shakllantirilgan.



4.	Qimmatli qog'ozlar investitsiya fondlar	Professional boshqaruv, diversifikatsiyalash	1 yilga qadar muddatli va portfel diversifikatsiyasi uchun optimal tanlovlar	Investitsiya kompaniyalari
5.	Qimmatli qog'ozlar bozorida Repo bitimlar	Yuqori likvidlilik, qisqa muddatli investitsiyalar	Muddati 1 oydan 3 oyga chadar, o'rtacha 14-18 foizlik daromad	Markaziy bank, tijorat banklari va brokerlik kompaniyalari
6.	Valyuta bozorida qisqa muddatli operatsiyalar	Arbitraj operatsiyalari vositasidagi daromad, kunlik likvidlilik	Valyuta kursining o'zgarishi	Tijorat banklari valyuta operatsiyalarida asosiy vositachi

Bunda eng an'anaviy moliyaviy instrumentlardan biri qisqa muddatli bank depozitlari hisoblanib, moliyaviy bozorlardagi ushbu instrumentlar orqali investitsiyalashning institutsional asoslari shakllantirilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarining qisqa muddatli investitsiyalari uchun eng keng tarqalgan moliyaviy instrument sifatida bank depozitlarini keltirishimiz mumkin. Ushbu moliyaviy instrumentlarning esa asosiy afzalliklaridan biri sifatida yuqori likvidlilikka asoslanganligini sanab o'tish mumkin. Bundan tashqari, davlat kafolatining mavjudligi, ya'ni depozitlarning 400 million so'mga qadar bo'lgan ulushining O'zbekistonda amaldagi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi" orqali kafolatlanishi ushbu moliyaviy instrumentning nisbatan past riskli va yuqori likvidlilikka asoslanganligining isboti hisoblanadi. Bundan tashqari, depozitlarning aniq fiksirlangan foiz stavkaga asoslanganligi uning asosiy afzalliklaridan biridir. Ushbu moliyaviy instrumentlar bo'yicha deyarli barcha tijorat banklarida amal qiluvchi qisqa muddatli depozitlarning o'rtacha muddati 1 oydan 12 oyga qadar mo'ljallangan bo'lib, ular bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 16–22 diapazonida tebranmoqda.

Davlat qimmatli qog'ozlari, xususan, qisqa muddatli davlat obligatsiyalari ham pul mablag'larini qisqa muddatli investitsiyalash uchun muhim moliyaviy instrument hisoblanadi.

Korporativ obligatsiyalar bozori ham rivojlanib borib, ushbu obligatsiyalar ham qisqa muddatli investitsiyalar uchun ma'lum imkoniyatlarga ega moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Xususan, amaldagi ushbu turkum obligatsiyalar bo'yicha daromadlilikning o'rtacha tortilgan me'yorlari 20–24 foiz atrofini tashkil qilib, yuqori reytingli kompaniyalar (masalan, "O'zbekneftgaz", "O'zbekiston temir yo'llari", "O'zavtosanoat" va boshqalar) tomonidan emissiya qilinishi ulardan ishonchli moliyaviy aktivlar sifatida foydalanilishiga asos bo'ladi. Qolaversa, ular yirik banklar va aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan likvidlilikni qo'llab-quvvatlash maqsadida chiqarilmoqda.

Moliya bozorida faoliyat olib borayotgan investitsiya fondlari qisqa muddatli investitsiyalarni amalga oshirishdagi samarali vositalardan biridir. Ushbu fondlarga qisqa muddatli investitsiyalashning afzalliklari sifatida professional boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan trast boshqaruviga moliyaviy resurslarning o'tkazilishi, moliyaviy aktivlarni risk va daromadlilik dilemmasi doirasida diversifikatsiyalash imkoniyatlarini yaratishini ko'rsatish mumkin. Xususan, ayni paytda "UzAssets", "Orient Capital Management", "Avesta Investment Group", "Portfolio Investments" kabi bir qator investitsiya kompaniyalari vositasida qisqa muddatli investitsiya portfellarini samarali shakllantirish imkoniyatlari mavjud.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish, belgilangan muddatda va belgilangan narxda sotish sharti bilan amalga oshiriladigan repo bitimlari (REPO agreement) ham optimal moliyaviy instrumentlardan biri sifatida ko'rilishi mumkin. Uning asosiy afzalliklari sifatida nisbatan yuqori likvidlik, daromadning belgilangan darajasi va tavakkalchilikning minimal darajasi qisqa muddatli investitsiyalash uchun qulay imkoniyat hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarni muntazam amalga oshiruvchi institutlar sifatida Markaziy bank, tijorat banklari hamda brokerlik kompaniyalarini sanab o'tish mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda jahon moliyaviy bozorlari kapitallashuvida eng yuqori segmentlardan birini tashkil qiladigan valyuta arbitraj operatsiyalari aksiyadorlik jamiyatlari uchun valyuta bozorida qisqa muddatli operatsiyalarni amalga oshirish uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Bunda asosiy vositachilar tijorat banklari bo'lib, valyuta kursi volatilligi sababli bu investitsiyalash usuli yuqori professionalizmni talab etadi.

Spekulyativ ishtiyoq negizidagi joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalarni o'zaro transformatsiyasiga asoslangan moliyaviy barqarorlikni "risk–daromad" dilemmasida samarali boshqarishning ushbu uslubiyoti quyidagi mexanizmga asoslanadi.

Ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida qisqa muddatli investitsiyalarga qo'yilma qilingan portfellarni optimallashtirishga oid moliyaviy qarorlar qabul qilishda determinallashtirish va determinallashtirmagan modellardan foydalaniladi. Bunda determinallashtirmagan modellardan moliyaviy bozorlardagi nobarqaror konyunktura sharoitida yuqori darajadagi xatar va noaniqliklar mavjud bo'lgan holatlarda daromadlarning ehtimolli matematik kutilishini aniqlashda foydalaniladi.

Moliyaviy bozorlarning ehtimolli modellarida qisqa muddatli investitsiyalarga qo'yilma qilingan moliyaviy aktivlarning kelgusidagi real qiymati, ya'ni daromadlilik aniq bo'lmasdan, tabiiy ravishda ulardan tashkil topgan portfelning (qisqa muddatli investitsiyalar) ham bahosi va daromadlilik aniq bo'lmasligi mumkin. Moliyaviy bozorlarning oddiy ehtimolli modelida bozorlar ma'lum stansionar davr intervalida turli holatlarning birida bo'lishi taxmin qilinadi.



Shunga asoslangan holda qisqa muddatli aktivlarga investitsiyalash natijasida shakllantirilgan portfellarini optimallashtirishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishning analitik bazasi determinallashgan va determinallashmagan modellarga asoslanadi.

Xususan, moliyaviy bozorlarning oddiy ehtimolli modelida bozorlardagi holat quyidagi uch holatda bo'lishi belgilab olinadi:

$$s_1, s_2, s_3; \quad (1)$$

Bu yerda,

s_1 - likvidlikning qo'llab quvvatlash pozitsiyasida "Yaxshi" holat; s_2 - "O'rtacha" holat va s_3 - "Yomon" holat sifatida kuzrilishi mumkin.

Ehtimollar nazariyasining fundamenta qoidalariga muvofiq bozordagi ushbu vaziyatlarni ehtimolligini shartli ravishda quyidagicha belgilaymiz:

$p(s_1)$ - bozordagi vaziyatning s_1 holatda bo'lish ehtimolligi;

$p(s_2)$ - bozordagi vaziyatning s_2 holatda bo'lish ehtimolligi;

$p(s_3)$ - bozordagi vaziyatning s_3 holatda bo'lish ehtimolligi.

Ushbu sharoitlarda qisqa muddatli investitsiyalar sifatida aktivlarni quyidagicha shartli ravishda belgilaymiz:

A_1, A_2, A_3

Bozordagi holatlarga asoslangan holda aktivlarning daromadlilikini quyidagicha hisoblash mumkin bo'ladi.

A_i ($i = 1, 2, 3$) aktivning daromadlilikini bozordagi har bir holat bo'yicha $p(s_1), p(s_2), p(s_3)$ diskret ehtimollik asosidagi daromad meyor shartli ravishda r_{1i}, r_{2i}, r_{3i} belgilanib, umumiy tarzda ushbu ehtimolli miqdor r_i deb qabul qilinadi (2-jadval).

2-jadval. Bozordagi o'zgaruvchan konyunktura sharoitida aktivlar daromadlilikini hisoblash amaliyoti²

Bozordagi holat	Ehtimollik	A_1 aktiv daromadlilikigi	A_2 aktiv daromadlilikigi	A_3 aktiv daromadlilikigi
s_1	$p(s_1)$	r_{11}	r_{21}	r_{31}
s_2	$p(s_2)$	r_{12}	r_{22}	r_{32}
s_3	$p(s_3)$	r_{13}	r_{23}	r_{33}

Xususan, A_i - aktiv daromadlilikini ehtimolli-matematik kutilishi sharoitida r_i daromad meyorining ehtimolli qiymati quyidagicha hisoblanadi.:

$$m_i = E[r_i] = r_{1i}p(s_1) + r_{2i}p(s_2) + r_{3i}p(s_3) \quad (2)$$

Fikrimizcha, ushbu daromad meyorining matematik kutilishini ma'lum ma'noda ehtimolli qiymatlarning o'rtacha ko'rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin.

Yuqoridagi optimal portfel modeliga asoslangan holda "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati investitsion siyosati startegiyasida arbitraj operatsiyasi hisobiga aktivlar rentabelligini oshirish imkonitlarini hisoblashimiz mumkin.

Bozorning 3 holati³ (sotib olingan aksiyalar) turli darajadagi daromadlilikka ega moliyaviy aktivlar tanlab olinadi. Xususan, bunda 2024-yildagi "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati ATB "O'zsanoatqurilishbank" (A_1) nizom jamg'armasida 0,11 foiz ulushga ega bo'lib (1 ta aksiya nominal qiymati 19 so'm), 270 044 130 dona aksiyalari va "Mikrokreditbank" ATBning nizom jamg'armasidagi ulushi 0,04 foizni (A_2) tashkil qilib (1 ta aksiya nominal qiymati 1068 so'm), 650000 dona aksiyalari va "Navoiy sado kompleksi" aksiyadorlik jamiyatining nizom jamg'armasidagi ulushi 5,46 foizni tashkil qilib (A_3), 400000 ta aksiyalarini (1 ta aksiya nominal qiymati 1000 so'm) sotib olingan.

Ushbu, investitsion siyosat bo'yicha shakllantirilgan portfellar alohida elementlari daromadlilik va umumiy moliyaviy aktivlar rentabelligini optimal boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda quyidagi hisob kitoblarni amalga oshirishimiz mumkin.

² Muallif tomonidan shakllantirilgan.

³ Izoh: sotib olingan aksiyalar emitentlarining tovarlar va ximatlari bozorida konyunkturaning o'zgarishi uch holatiga asoslangan xoldagi ishilarmon faollik indeksi sharoitida aktivlar rentabelligining o'zgarishi va natijada sof foyda hisobiga dividend me'yoring o'zgarishi orqali bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend me'yori bo'yicha hisob kitoblar asos sifatida olinadi.



$$m_1 = E[r_i] = r_{1i}p(s_1) + r_{2i}p(s_2) + r_{3i}p(s_3) = 31 \times 0,2 + 18 \times 0,5 + 10 \times 0,3 = 18,2;$$

$$m_2 = E[r_i] = r_{1i}p(s_1) + r_{2i}p(s_2) + r_{3i}p(s_3) = 30 \times 0,2 + 25 \times 0,5 + (20) \times 0,1 = 20,5;$$

$$m_3 = E[r_i] = r_{1i}p(s_1) + r_{2i}p(s_2) + r_{3i}p(s_3) = 25 \times 0,2 + 20 \times 0,5 + 0 \times 0,3 = 15.$$

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, ATB “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyalariga qo‘yilma qilingan moliyaviy aktivlar daromadliligi bozorning uch turkumdagi holatida umumiy 18,2 foizlik daromadlilikni namoyon qiladi (3-jadval).

3-jadval. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati investitsion portfelidagi alohida moliyaviy aktivlar daromadligi to‘g‘risida ma’lumot⁴

Bozordagi holat	Ehtimollik	A ₁ aktivning daromadliligi	A ₂ aktivning daromadliligi	A ₃ aktivning daromadliligi
s ₁	0,2	31	30	25
s ₂	0,5	18	25	20
s ₃	0,3	10	2	0

“Mikrokreditbank” ATB aksiyalariga qo‘yilma qilingan moliyaviy aktivlar daromadliligi o‘rtacha tortilgan ehtimollikda 21,5 foizni, “Navoiy sado kompleksi” aksiyadorlik jamiyati moliyaviy aktivlari esa o‘rtacha tortilgan ehtimollikda 15 foizni tashkil qilmoqda.

Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, daromadlilikning o‘rtacha ehtimolli matematik kutilishi ehtimolli miqdorning yagona tavsifi hisoblanmaydi. Chunki uchchala korxona moliyaviy aktivlarining bozordagi turli vaziyatlar sharoitidagi daromadliligi dispersiyasi turlichadir. Ya’ni ehtimolli miqdorning yana bir tavsifi sifatida ehtimolli miqdorning dispersiyasi olinadi va u daromad me’yorining ehtimollikning turli holatlaridagi qiymatlarining o‘rtachadan ko‘rsatkich bo‘yicha tebranishini tavsiflaydi. Boshqacha aytganda, bu tushuncha fanda ehtimolli miqdor variatsiyasi deb ham ataladi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$V(r_i) = (r_{1i} - m_i)^2 p(s_1) + (r_{2i} - m_i)^2 p(s_2) + (r_{3i} - m_i)^2 p(s_3) \quad (3)$$

Garri Markovisning investitsiyalar nazariyasiga muvofiq moliyaviy aktivlar daromadliligining matematik kutilishi daromadlilikni hioblashning o‘ziga xos ravishdagi “muqobil varianti” hisoblanadi va variatsiya uning risk darajasini baholab beradi. Xususan, aktivlar daromadliligining ehtimolli qidori (r_i) uning istiqboldagi nominal qiymatini ifodalasa, kutilayotgan daromadning variatsiyasi $V(r_i)$ ushbu daromadning ehtimolligini ifodalab, boshqacha aytganda risk darajasini o‘zida mujassamlashtiradi. Variatsiyaning o‘rniga aksariyat holatlarda o‘rtacha kvadratik tebranish ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi.

Buni hisoblashda matematik statistikaning quyidagi formulasidan foydalaniladi:

$$\sigma_i = \sigma(r_i) = \sqrt{V[r]} \quad (4)$$

Yuqoridagi formulalarga asoslangan holda “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati investitsiya strategiyasiga asoslangan holdagi shakllantirilgan portfel daromadliligi va uning o‘rtacha tortilgan risk darajasini hisoblashimiz mumkin.

$$V(r_1) = (r_{11} - m_1)^2 p(s_1) + (r_{21} - m_1)^2 p(s_2) + (r_{31} - m_1)^2 p(s_3) = (31 - 18,2)^2 0,2 + (18 - 18,2)^2 0,5 + (10 - 18,2)^2 0,3 = 32,76 + 0,02 + 20,17 = 52,95;$$

$$V(r_2) = (r_{12} - m_2)^2 p(s_1) + (r_{22} - m_2)^2 p(s_2) + (r_{32} - m_2)^2 p(s_3) = (30 - 20,5)^2 0,2 + (25 - 20,5)^2 0,5 + (2 - 20,5)^2 0,3 = 18,5 + 10,12 + 102,67 = 131,29;$$

$$V(r_3) = (r_{13} - m_3)^2 p(s_1) + (r_{23} - m_3)^2 p(s_2) + (r_{33} - m_3)^2 p(s_3) = (25 - 15)^2 0,2 + (20 - 15)^2 0,5 + (0 - 15)^2 0,3 = 20 + 12,5 + 0 = 32,5;$$

Ushbu holatda har uchchala moliyaviy aktiv uchun kutiladigan daromadlilikning standart tebranishi quyidagilarga teng bo‘ladi (4-jadval):

$$\sigma_1 = \sigma(r_1) = \sqrt{V[r]} = 7,27; \quad \sigma_2 = \sigma(r_2) = \sqrt{V[r]} = 11,45; \quad \sigma_3 = \sigma(r_3) = \sqrt{V[r]} = 5,7$$

4 Muallif tomonidan shakllantirilgan.



4-jadval. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati investitsion portfelidagi alohida moliyaviy aktivlar daromadligi to’g’risida ma’lumot⁵

Bozordagi holat	Ehtimollik	A_1 aktivning daromadligi	A_2 aktivning daromadligi	A_3 aktivning daromadligi
s_1	0,2	31	30	25
s_2	0,5	18	25	20
s_3	0,3	10	2	0
Kutiladigan daromad., $E[r_i]$		18,2	20,5	15
Variatsiya, $V(r)$		52,95	131,29	32,5
Standart tebranish, σ		7,27	11,45	5,7

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, “Navoiyazot” AJ ning ATB “O’zsanoatqurilishbank” aksiyalariga qo’yilma qilish natijasidagi moliyaviy aktivlaridan kutiladigan daromad ($E[r_i]$) 18,2 foiz sharoitida ushbu daromadlilikning risk darajasi 7,27 ni tashil qiladi. Ushbu ko’rsatkichlar “Mikrokreditbank” ATB da (20,5 foiz) 11,45 va “Navoiy savdo kompleksi” AJda (15 foiz) 5,7 foizni tashkil qilmoqda.

Eng yaxshi aktiv birinchi aktiv bo’ladi chunki, birinchi aktiv bo’yicha parametrlar: kutiladigan daromadlilik:

$$E[r_2] > E[r_1] > E[r_3] \quad (20,5 > 18,2 > 15;) \quad (5)$$

Kutiladigan risk:

$$V(r_3) < V(r_1) < V(r_2) \quad (32,5 < 52,95 < 131,29) \quad (6)$$

Standart tebranish,

$$\sigma_3 < \sigma_1 < \sigma_2 \quad (5,7 < 7,27 < 11,45) \quad (7)$$

Agar parametrlari bo’yicha bozorda birinchi aktiv bo’lmasa 2 va 3 aktivlardan qaysi birini tanlash qiyin bo’ladi. Chunki, ikkinchi aktiv yuqori lekin variatsiya koeffitsiyenti yani kutiladigan risk ham yuqoridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Navoiyazot” AJ moliyaviy aktivlar portfelining tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, aktivlar rentabelligini mo’tadil darajada ta’minlash va likvidlilikni qo’llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan eng optimal investitsion qaror ATB “O’zsanoatqurilishbank” moliyaviy aktivlariga qo’yilma qilish hisoblanadi. Chunki ushbu moliyaviy aktiv nisbatan yuqori daromadlilik va o’rtacha risk darajasiga ega. Shuningdek, “Navoiy savdo kompleksi” AJ moliyaviy aktivlari likvidlilikni yo’qotish riskidan xavf buferlarini shakllantirishda muhim moliyaviy aktiv hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini, shuningdek, ularning rentabelligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. World Bank (2013-11-07). Global Financial Development Report 2014: Financial Inclusion. The World Bank. DOI:10.1596/978-0-8213-9985-9. hdl:10986/16238. ISBN 978-0-8213-9985-9.
2. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. The Journal of Finance, 7(1), 77–91.
3. Касимов Ю. Финансы и инвестицию-М.: Юрайт6 2009.-232 с.
4. Tobin, J. (1965). The theory of portfolio selection. In F. H. Hahn & F. P. R. Brechling (Eds.), The Theory of Interest Rates (pp. 3–51). London: Macmillan.
5. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. American Economic Review, 48(3), 261–297.
6. Damodaran, A. (2010). Applied Corporate Finance (3rd ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
7. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2019). Principles of Corporate Finance (13th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
8. Damodaran, A. (2010). Applied Corporate Finance (3rd ed.). Hoboken, NJ: Wiley.

⁵ Muallif tomonidan shakllantirilgan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>